

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹

2025- yil yanvar-avgust


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **20 955,9** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,9 %** ni tashkil etib, uning hajmi esa **3 619,0** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar hajmi **17 336,9** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **110,9 %** ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan (**8 630,0** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 666,7** ming so'mga yoki **10,4 %** ga o'sib, **10 296,7** ming so'mni tashkil etgan.

2025- yilning yanvar-avgust oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **15 268,6** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **72,9 %** ini, jumladan, **50,6 %** ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

¹ 2024- yil yanvar-avgust oylari hajmi va 2025- yil yanvar-avgust oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-avgust

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Resp.²	20955,9	100	111,9
Nukus shahri	4996,9	23,8	116,1
tumanlar:			
Amudaryo tumani	654,3	3,1	111,1
Beruniy tumani	662,8	3,2	111,9
Bo'zatov tumani	84,0	0,4	110,7
Qorao'zak tumani	227,5	1,1	110,0
Kegeyli tumani	256,5	1,2	110,8
Qo'ng'iro't tumani	1278,7	6,1	100,1
Qonliko'l tumani	206,6	1,0	111,1
Mo'ynoq tumani	301,4	1,4	134,8
Nukus tumani	288,6	1,4	111,5
Taxiatosh tumani	275,8	1,3	112,4
Taxtakopir tumani	193,6	0,9	110,1
To'rtko'l tumani	917,5	4,4	113,5
Xo'jayli tumani	607,2	2,9	112,8
Chimboy tumani	387,9	1,9	111,1
Shumanoy tumani	187,0	0,9	111,7
Ellikqal'a tumani	534,0	2,5	110,6

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Nukus shahrining yuqori ulushi (**23,8 %**) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u Qoraqalpog'iston respublikasining eng yirik shahridir. Poytaxtda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Nukus rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

² Shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida yashash va ovqatlanish xizmatlari **9,6 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissasi **3,4** bandni tashkil etdi), savdo xizmatlari **12,7 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissasi **2,1** band), moliyaviy xizmatlar **14,7 %** ga (o'sishiga hissasi **1,9** band), transport xizmatlari **7,2 %** ga (o'sishiga hissasi **1,1** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **18,1 %** ga (o'sishiga hissasi **0,7** band) va ta'lim sohasidagi xizmatlar **22,3 %** ga (o'sishiga hissasi **0,7** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-avgust)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	17 336,9	20 955,9	111,9
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	627,2	825,4	118,1
moliyaviy xizmatlar	2 260,7	2 642,9	114,7
transport xizmatlari	2 599,7	2 892,4	107,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 514,5	1 792,8	114,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 159,1	7 435,8	109,6
savdo xizmatlari	2 896,9	3 418,2	112,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	293,9	372,4	110,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	509,0	740,1	122,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	175,5	223,2	114,6
ijara xizmatlari	220,6	297,3	123,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	420,6	532,2	114,6
shaxsiy xizmatlar	465,6	595,5	112,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	120,7	153,6	116,4
boshqa xizmatlar	587,4	826,9	117,1


Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **35,5 %**, savdo xizmatlari **16,3 %**, transport xizmatlari **13,8 %**, moliyaviy xizmatlar **12,6 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,9 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,5 %** ulushini tashkil etdi.

*Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **35,5 foiz**, savdo xizmatlari **16,7 foiz**, transport xizmatlari **15,0 foiz**, moliyaviy xizmatlar **13,1 foiz**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **3,6 foiz**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **2,9 foiz** ulushni tashkil etgan.*


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2025- yil yanvar-avgust, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **73,1 foizni** tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **14,3 foizga** o'sgan.

2025- yilning yanvar-avgust oylarida **savdo xizmatlari** tarkibidagi **chakana savdoning** o'sishi kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **1 901,5 mlrd so'mga** yoki **10,4 foizga** o'sishi kuzatilgan.

Savdo xizmatlarining o‘shish sur‘ati dinamikasi



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar** sohasida **kompyuterlar va periferik uskunalarni ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish xizmatlari (117,2 %)**, **kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta‘mirlash xizmatlari (117,2 %)** xizmatlarida yuqori o‘shish sur‘ati qayd etildi. Mebellar va uy-ro‘zg‘or anjomlarini ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlarining **32,2** foizini tashkil etadi.

Maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog‘ uchun uskunalar (gazon o‘ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari shu sohani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Qoraqalpog‘iston respublikasida **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o‘shishni ko‘rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko‘payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog‘liqdir. Ushbu xizmatlarning o‘shishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta‘sir ko‘rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **98,8 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat va ichimliklar ilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarning o‘shish sur‘ati **109,5 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tushuntirishlar

Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari va notijorat tashkilotlar bo‘yicha statistik hisobot (ro‘yxat bo‘yicha);



b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlari to'lovligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
Xizmatlar va savdo statistikasi
bo'limi

Manzil: 230103, Nukus,
A. Dosnazarov kóshesi, 97 a-úy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-22-45

